IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tursonova Saida Isakovna
Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi
Tel:91-588-64-22
Qarshiyeva E'zoza O'ktamovna
Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning usullari va shaxslarning ilmiy dunyoqarshga ega bo'lishining ahamiyati, muhum jihatlari, mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, o'quvchilar bilan hamkorlikda ish olib boorish hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakillantirishning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar
Ilmiy dunyoqarash, shaxs, erkin fikr, shaxs mustalilligi, salohiyat,ilmiy izlanish, o'qituvchi, boshlang'ich sinf o'quvchilari,bolalar, kelajak, rivojlanish, shakllantirish, muammoli ta'lim, rebus.

Abstract
This article discusses methods of forming the scientific worldview of elementary school student and important aspects of individuals having a scientific worldview teaching independent thinking working in cooperation with students, and the importance of forming the scientific worldview of elementary school students is discussed.

Key words

Scientific outlook, individual, free thought, individual independence, potential, scientific research, teacher,primary school student, children,nfutere, development, formation,problem-based, rebus

Insonlarning ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishi hamma zamonda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar, tabiat jamiyat hamda ilm sohasiga doir hodisalar va fikrlarning mohiyatini to'g'ri talqin qila oladi va hech qanday dalil bilan o'z aksini topmagan fikr va voqealarni ishonchli deb qabul qilmaydi. Ilmiy dunyoqarashga egalik shaxsning mustaqilligi, erkin fikr yuritishi, fikrlarining aniq isbotini topganligi va mantiqiyligi bilan ajralib turadi. Bunday shaxslar har xil oqimlarga va inson ongini o'zgartirishga qaratilgan g'oyalar ta'siriga tushib qolishi amrimahol. Bunday insonlar o'ziga va kelajagiga ishonchi baland.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Farzandlarimizning qobilyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan etibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibin Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi, men bunga ishonaman" deb ta'kidlagan edilar. Yosh avlodning dunyoqarshini shakllantirish o'quvchilarnining har tomonlama yetuk, intelektual salohiyatli, erkin fikrga ega nutqi ravon, komil inson bo'lib yetishishiga ilmiy dunyoqarash asos bo'lib hizmat qiladi deb talqin qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolada ilmiy dunyoqarash o'z-o'zdan payda bo'lmaydi. Buning tag zamirida o'qituvchi o'quvchining birgalikdagi mehnat faoliyati va o'qituvchining mas'uliyati vazifasi yotadi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ikki yo'l: tajriba va mantiq bilan hosil qilinadi.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

Bishlang'ich sinflarga ilmiy bilimlarni berish, ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan munosabatni qaror toptirish, mavjud bilimlardan amaliyda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg‘usini shakllantirish, bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan qobiliyatlar va xususiyatlarni rivojlantirishni har bir o'qituvchi darsturi amal qilib olishi zarur. O'qtuvchi va o'quvchining hamkorlikdagi harakati, o'quvchining fikrini doimo inobatga olishi muhim.

O'qituvchining o'quvchilarga muammoli masalalar va ziddiyatlar bilan yuzlanishi, o'quvchilarning masalaga yechim topishga ilmiy yondashuviga olib keladi. Bu holat o'quvchilarning mustaqil izlanishi, o'z ustida ishlashi va ilmiy kitoblarni o'qishiga turtki bo'ladi. Ilmiy dunyoqarash o'z ustida ishlash ilmiy kitoblar o'qish orqali shakllanadi va asta-sekin rivojlanib boradi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning omillaridan biri fanlarning o‘zaro aloqadorligidir. Fanlarning o‘zaro aloqadorligi, ijtimoiy va tabiiy omillarning o‘zaro muvofiq bo‘lganligidan, ijtimoy munosabatdan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bir fanni ikknchi fanga bog’lash orqali o’quvchining boshqa fanlaga qiziqishi ortadi. Bolaning dunyoqarashini shakillantirish omillaridan yana biri muammoli ta’lim. Muomali ta’lim dars jarajoni muhim ro’l o’ynagani kabi ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim jarayon. Muammoli ta'limning ilmiy dunyoqarashni shakillantirishdagi o'riniga to'xtalsak quyidagilarni qamrab oladi: O'quvchilarni ilmiy, didaktik,ijodiy fikrlashga o'rgatadi, u o'quv materiallarini ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e'tiqodga aylanishiga ko'maklashadi, u odatda ancha ta’sirchan bo'lib, chuqur intelektual his-tuyg‘ular, shu jumladan ko'tarinki ruh, hissini o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch ma'suliyati vujudga keltiradi, shuning uchun u o'quvchilarni qiziqtiradi, ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi. Haqiqat qonuniyatning mustaqil kashf etilishi olingan bilimlarni unutmasligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham ularni tez qayta tiklash mumkun. O’quvchilarning ilmiy dunyoqarashini paydo qilai rivojlantiradi va kengaytiradi shu bilan birgalikda ma’navuyatini oshiradi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda rebuslarni qo’llash.. Rebus sur’at, harf va ba’zi belgilar ifoda etiladigan topishmoq. Rebuslar birinch navbatta qiziqarli bolani qiziqtira oladi, o’yin orqali tushuntirish samara beradi. Rebusning samaralari quyidagilar: o‘quvchilarning fikrlarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi, ular aqil, mantiq, sezgi, Rebuslar zeyraklikni tarbiyalaydi, bolaning dunyoqarashini kengaytiradi, yangi so‘zlarni yodda saqlashga yordam beradi, vezual xotirani rivojlantirishga, imlo qoidalarini to’g’irlasgga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak hamma narsaning tag zamirida albatta mehnat, harakat yotadi. Har bir o’qituvchi yuqorida keltirilgan usullar orqali bola bilan harakat ishlasa albatta natijaga erishadi. Albatta yosh avlod bizning kelajagimizdir. Har bir shaxs ilim yo’lida harakat qilar ekan, o’zining jamiatga kerak ekanligini, uning bir bo’lagi ekanligini his etsa, albatta O’zbekiston rivojlanishda yuqori cho’qqilarga erishadi. Bularning hammasi yoshlikdagi olingan ilmiy biimlarga bog’liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Isakovna, T. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TARBIYALASHDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘RNI. *PEDAGOGS jurnali*, *36*(1), 67-71.
2. Sultanova, T., & Tursunova, S. (2023). BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING OG’ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Interpretation and researches*, *2*(1).

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

3. Allaberganova, Y., & Tursunova, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH. *Interpretation and Researches*, *2*(1). извлечено от https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/937
4. Турсунова , С., & Чориева , Ҳ. (2023). МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШ ТАЛАБАЛАР УЧУН МУҲИМ ВАЗИФА. *Interpretation and Researches*, *2*(1). извлечено от https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1100
5. Ismatova, N., & Tursunova , S. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH, TILSHUNOSLIK USLUBIY MUAMMO SIFATIDA. *Interpretation and Researches*, *2*(1). извлечено от https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/965
6. Bahodirovna, C. Z., & Tursunova, S. I. (2023). ON THE EXAMPLE OF RUSSIAN EXPERIENCE IN CREATING PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS. *International Journal of Pedagogics*, *3*(04), 1-11.
7. Tursunova, S., & Kh, T. M. (2023). REGARDING THE DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCES IN PRIMARY EDUCATION. *International Journal of Pedagogics*, *3*(04), 12-20.
8. Tursunova S., Kh T. M. REGARDING THE DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCES IN PRIMARY EDUCATION //International Journal of Pedagogics. – 2023. – Т. 3. – №. 04. – С. 12-20.
9. Hikmatov, I., & Tursunova, S. (2023). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARINI MA'NAVIY-MA'RIFIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING IMKONIYATLARI. *Interpretation and researches*, *2*(1).
10. Сатторова, М. (2023). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ФАЗИЛАТЛАРИНИ ТАРБИЯЛАШ УСУЛЛАРИ. *Interpretation and researches*, *1*(1).

WORDLY KNOWLEDGE